

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

Salayeva Lobar Ulug‘bek qizi

**HUDUDLAR IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI INNOVATSION
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH
(XORAZM VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in economic
sciences**

Salayeva Lobar Ulug'bek qizi. Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini innovatsion mexanizmlarini takomillashtirish (Xorazm viloyati misolida).....3

Салаева Лобар Улугбек кизи. Совершенствование инновационных механизмов социально-экономического развития регионов (на примере Хорезмской области).....27

Salaeva Lobar Ulugbek kizi. Improvement of innovative mechanisms of socio-economic development of regions (on the example of Khorezm region).....53

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works57

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

Salayeva Lobar Ulug‘bek qizi

**HUDUDLAR IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI INNOVATSION
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH
(XORAZM VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.12 –Mintaqaviy iqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch - 2025

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/Iqt5954 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.urdu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mullabayev Baxtiyorjon Bulturbayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Matyaqubov Umidjon Raximovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yavmutov Dilshod Shoyimardonqulovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Termiz davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. 03/27.09.2024.I.55.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "____" _____ soat _____: _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil 220100, Urganch sh., H.Olimjon ko'chasi 14-uy. Tel.: (998-62) 224-67-00; faks: (998-62)224-57-00; e-mail: info@urdu.uz).

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch sh., H. Olimjon ko'chasi 14-uy. Tel.: (998-62)224-67-00; faks: (998-62)224-57-00; e-mail: arm@urdu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "____" _____kuni tarqatildi.

(2025-yil "____" _____dagi №_____ raqamli reyestr bayonnomasi)

I. S. Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

T. J. Raximov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, PhD., dotsent

B. Ruzmetov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH ((PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda so‘nggi 20 yilda mamlakatlar o‘rtasidagi daromad farqlari qisqargan bo‘lsa-da, ko‘pgina davlatlar ichida poytaxt va yirik aglomeratsiyalar boshqa hududlardan ajralib bormoqda, infratuzilma sifati, xizmatlarga kirish va mehnat unumdorligidagi tafovutlar “geografik norozilik” manbai bo‘lib bormoqda¹. BMT ma‘lumotlariga ko‘ra, shaharlar jahon YaIMning 80 foizidan ortig‘ini yaratmoqda, ammo iqtisodiy o‘shish foydasi barcha hududlarga teng taqsimlanmayapti². Jahon banki tadqiqotlariga ko‘ra 108 ta o‘rta daromadli davlatlar 40 foiz global YaIMni beradi³, biroq “o‘rta daromad tuzog‘i”ni yengish uchun hududlarda innovatsion iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish zarur.

Jahonda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirilishi bo‘yicha yondashuvlar sanoatni hududiy diversifikatsiyalash, innovatsion markazlar va texnoparklar tarmog‘ini kengaytirish hamda klasterlashuv asosida raqobatbardosh ishlab chiqarish tizimini shakllantirishga qaratilmoqda. Jahon amaliyotida sanoatni hududiy joylashtirish bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlar iqtisodiy o‘shishga ta‘sir etuvchi omillarni, ya‘ni texnologik yangilanish, infratuzilma integratsiyasi, logistika tarmoqlari, kadrlar salohiyati va mahalliy resurslardan samarali foydalanishni tizimli tahlil etishga yo‘naltirilgan. Xususan, klaster tizimi mintaqaviy innovatsiyalarni rag‘batlantirish, ishlab chiqarish zanjirlarining uyg‘unligini ta‘minlash, kichik va o‘rta biznesni yirik sanoat subyektlari bilan kooperatsiyalash hamda hududlararo iqtisodiy integratsiyani kuchaytirishda muhim mexanizm sifatida qaralmoqda. Shu tariqa, hududlarni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari sanoat klasterlarini rivojlantirish orqali innovatsion iqtisodiyotga o‘tish, barqaror o‘shish va ijtimoiy farovonlikni ta‘minlashni borasida muhim ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda.

Yangi O‘zbekistonda hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini innovatsion mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha mintaqaviy iqtisodiy siyosatni takomillashtirish va hududlar imkoniyatlarini kompleks rivojlantirish va innovatsion rivojlantirish mexanizmini samarali tatbiq etish masalalari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan taraqqiyot strategiyasining 51-maqсадida mamlakatimiz mintaqalarida innovatsion mexanizmlarni yaxshilash masalasi quyidagicha ta‘kidlab o‘tilgan: “Iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonalari va ilm-fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish. Innovatsion hududga aylantirilayotgan tumanlarda mavjud analoglaridan 50 foizgacha arzonlashtirilgan va sifatli, xomashyo narxiga nisbatan 2-3 baravar yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalarini o‘zlashtirish, shu jumladan umumiy qiymati 165,9 milliard so‘mlik jami 195 ta loyihani amalga oshirish⁴. Shunday ekan, O‘zbekistonda hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini innovatsion mexanizmlarini takomillashtirish ustuvor vazifa bo‘lib xizmat qiladi. Bu borada mamlakatning har bir

¹ https://www.oecd.org/en/publications/2023/10/oecd-regional-outlook-2023_3a6174ba.html?

² <https://unhabitat.org/sites/default/files/2024/10/global-state-of-national-urban-policy-2024.pdf>

³ <https://www.theguardian.com/business/article/2024/aug/01/world-bank-warns-108-countries-risk-being-stuck-in-middle-income-trap-china-india-economies>

⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони. <https://lex.uz/docs/5841063>

hududi tabiiy, resurs, mehnat va infratuzilma salohiyati jihatidan farqlangan bo‘lib, ushbu imkoniyatlardan oqilona foydalanish mintaqaviy raqobat ustunliklarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, hududlarda sanoat klasterlarini tashkil etish va ularni barqaror rivojlantirish iqtisodiy o‘shishning yangi drayveri sifatida qaralmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-yanvardagi “Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4102-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 31-iyuldagi “Pillachilik tarmog‘ida chuqur qayta ishlashni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4411-son Qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-iyuldagi “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4406-son Qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi- ning ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish hamda mintaqaviy tengsizliklarni kamaytirish masalalari doimo jahon va milliy iqtisodiy tafakkurning markazida bo‘lib kelgan. So‘nggi o‘n yilliklarda global iqtisodiyotda raqobatning hududiy tabiatini o‘rganish, innovatsion markazlar, klasterlar va aglomeratsiyalar shaklida iqtisodiy faollikni jamlash tendensiyasi kuchaygani sababli bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar yangi bosqichga ko‘tarildi. Xususan, xorijiy iqtisodchi olimlar A.Venables, X.Glenn, P.Krugman, B.Robert, M.Fujita, B.Shaun, M.Enrayt⁵ va boshqalar hududiy iqtisodiy o‘shishning nazariy modellarini yaratish, yangi iqtisodiy geografiya tamoyillarini asoslash hamda mintaqalararo raqobatning shakllanish omillarini tahlil qilish orqali muhim ilmiy hissa qo‘shganlar. Ularning asarlarida klasterlashuv, tashqi iqtisodiy aloqalarning diversifikatsiyasi, transport va logistika tizimining rivojlanishi kabi omillar hududiy iqtisodiy o‘shishning determinantlari sifatida e‘tirof etiladi.

MDH mamlakatlari olimlaridan A.G.Granberg, Y.A.Gadjiyev, O.G.Dmitriyeva, N.Zubarevich, S.V.Kazansev, I.N.Merenkova, A.N.Nosov, O.I.Panteleeva, D.Sepik, L.A.Serebryakova⁶ va boshqalar esa hududiy-iqtisodiy siyosatning nazariy asoslari,

⁵ Roberts B. National and regional corporate spatial structure / B. Roberts, A. Murray // The Annals of Regional Science. 2002. Vol. 36.; Fujita -M., Krugman P., Venables A.J. The Spatial Economy: Cities, Regions and International Trade. - The MIT Press, 2001. P. 384. Enright M. The Geographical Scope of Competitive Advantage // Stuck in the Region? Changing scales for regional identity / Ed. By E. Dirven, J. Groenewegen and S. van Hoof. Utrecht, 1993. P. 87102. B.Shaun and H. Glenn. Microregionalism and world order: concepts, approaches and implications. London: Palgrave Macmillan, 2003. P. 272.

⁶ Гранберг А.Г. Основы региональной экономики. М.: ГУ ВШЭ, 2003. - 52 с.; Гаджиев Ю.А. Зарубежные новые теории регионального роста и развития //“Корпоративное управление и инновационное развития Севера”.

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni boshqarish, hududiy ixtisoslashuv, resurslardan kompleks foydalanish hamda hududiy iqtisodiy salohiyatni baholash masalalariga alohida e'tibor qaratgan. Ularning ishlari mintaqaviy rivojlanish strategiyalarining ilmiy-metodologik bazasini shakllantirishga xizmat qilgan.

O'zbekistonda ham hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish, ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish, sanoat majmualari faoliyatini boshqarish hamda mintaqalarning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha ilmiy izlanishlar faol olib borilmoqda. Bu borada S.S.G'ulomov, T.M.Axmedov, A.M.Sodiqov, A.M.Qodirov, Sh.H.Nazarov, B.Ruzmetov, Sh.B.Imomov, P.Z.Xashimov, F.T.Egamberdiyev, A.A.Qayumov, A.J.Siddiqov, I.O.Yakubov va boshqa iqtisodchi olimlarning tadqiqotlarida mintaqaviy rivojlanishning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur yoritilgan⁷.

Biroq mavjud ilmiy ishlarda hududlar innovatsion ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ekonometrik tahlil qilish uslubini takomillashtirish masalalari yetarlicha o'rganilmagan. Shu bois, mazkur dissertatsiya ishida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ekonometrik yondashuv asosida tahlil qilish, klaster mexanizmini nazariy va amaliy jihatdan takomillashtirish hamda uni milliy iqtisodiy siyosatga integratsiya qilish masalalariga yangi ilmiy yondashuvni taqozo etiladi. Ushbu dissertatsiya ishida o'rganilayotgan muammoga yetarlicha e'tibor qaratilmaganligi va uning munozarali tavsifga ega ekanligi masalaga yangicha ilmiy yondashuvni taqozo etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya mavzusi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Вестник Сыктывкарского государственного университета. 2008 №2; Дмитриева О.Г. Региональная экономическая диагностика. -СПб.: Изд-во СПб. Университета экономики и финансов, 1992.; Зубаревич Н. Региональное развитие и институты // Экспертный портал Высшей школы экономики "Открытая экономика" - OPEC.ru; Казанцев С.В. Потенциал экономики регионов России как основа их внутренней конкурентоспособности. // Регион, 2004, №1; Меренкова И.Н. Диагностика уровня развития сельских территорий // "Региональная экономика: теория и практика", 2010, №24; Носов А.К. Управление взаимоотношениями в региональной кластерной структуре, связанной цепью поставок. // Логистика и управление цепями поставок, 2009, №6; Пантелеева А.П. Применение индикаторов устойчивого развития на региональном и муниципальном уровнях // Региональная экономика: теория и практика, 2010. №22; Сепик Д. Индикаторы конкурентоспособности регионов: европейский подход // Регион: экономика и социология, 2005, №2; Серебрякова Л.А. Методы оценки уровня социально-экономического развития регионов // Вестник СевКавГТУ, серия "Экономика", 2003, №3.

⁷ Гулямов С.С. Моделирование социально-экономического развития территориально-промышленных комплексов. -Т.: Фан, 1980. - 194 с.; Садыков А.М. Основы регионального развития: теория, методология, практика // Монография. Т.: IQTISOD - MOLIYA, 2005. - 280 с.; Рuzметов Б. Комплексное развитие региона в условиях углубления экономических реформ. Автореф. дис....докт. экон. наук. -Т.: 1998; Ахмедов Т.М. Регулирование территориальной организации производительных сил и комплексного развития регионов Узбекистана. -Т.: ФАН, 1992; Имамов Ш.Б. Регулирование территориального развития экономики Узбекистана: Автореф. дис....докт. экон. наук. -Т.: 1998; Қаюмов А.А., Назарова Х.М., Эгамбердиев Ф.Т., Якубов Ў.Ш. Минтақавий иқтисодиёт. -Т.: Университет, 2004; Назаров Ш.Х. Ўзбекистон минтақалари рақобатдошлигини оширишнинг методологик асосларини такомиллаштириш. Докторлик диссертацияси автореферати. -Т.: 2016. - 5 б.; Сиддиқов А.Ж. Иқтисодий ислохотларнинг янги босқичида саноат ишлаб чиқаришнинг минтақавий муаммолари (Қашқадарё вилояти мисолида) кандидатлик диссертацияси автореферати. -Т., 2006; Якубов И.О. Минтақавий иқтисодиёт. -Т.: ТДИУ, 2016.

Tadqiqotning maqsadi hududlar innovatsion ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ekonometrik tahlil qilish uslubini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

hududlarni innovatsion ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining nazariy asoslarini tadqiq etish;

hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlarini tizimlashtirish;

O'zbekiston Respublikasi hududlari rivojlanishining statistik tahlilini amalga oshirish;

Xorazm viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining integral indeksi asosida baholash;

O'zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni panel regressiya tahlilini amalga oshirish;

hududlar innovatsion ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ekonometrik tahlil qilish uslubini takomillashtirish;

hududlarni innovatsion ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish;

Xorazm viloyatini innovatsion ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi hududlari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti hududlar innovatsion ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ekonometrik tadqiq etish usulini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayon va munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy bilishning dialektik, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, kompleks, qiyosiy tahlil, guruhlash, klasterlash, ekonometrik va prognozlash usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

hududlar innovatsion ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini tahlil etishda entropiya hamda PCA (Principal Component Analysis) usullarini kombinatsiyalash asosida $w_j = \alpha w_j^{(entropy)} + \beta w_j^{(PCA)} + \gamma w_j^{(expert)}$ formulasi taklif etilgan;

hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda normativ-huquqiy baza va strategik dastur, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va inson kapitali, ilmiy ishlanmalarni moliyalashtirish, texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish, innovatsion mahsulotlarni bozorga chiqarish va eksport qilish, hududiy iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi algoritmi taklif etilgan;

O'zbekiston hududlari bo'yicha Regression Tree va Random Forest tahlillari agrar ko'rsatkichlardan ko'ra transport xizmatlari hajmi ($\text{Ln}X_{13}=0.457$) hamda moliya xizmatlari hajmi ($\text{Ln}X_{14}=3.42$), hududlarda yalpi ichki mahsulotni o'sishi hamda aholi jon boshiga daromadlarni o'sishiga ijobiy ta'sir etuvchi ekzogen omillar aniqlangan;

O'zbekiston Respublikasi Xorazm viloyatining aholi daromadlari va aholi jon boshiga YaIM hajmlarining 2030-yilgacha prognoz senariylari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

viloyat sanoati rivojlanishining hududiy muammo va manbalari aniqlangan hamda hududning sanoat tarmoqlari rivojlanish tendensiyalari baholangan;

hudud sanoatining intensiv o'sish sur'atlariga ta'sir etuvchi omillar aniqlangan va sanoat ishlab chiqarishning yalpi hududiy mahsulotga ta'siri baholangan;

viloyatda sanoatni barqaror rivojlantirish imkoniyatlari baholangan hamda hududiy sanoat ishlab chiqarishni mutanosib rivojlantirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada foydalanilgan axborot bazasining ishonchliligi ularning rasmiy manbalardan olinganligi, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning ishonchliligi, respublika va hududlar innovatsion ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ekonometrik tahlil qilish uslubini takomillashtirish bo'yicha qabul qilingan ustuvor yo'nalish va dasturlarga mosligi hamda tegishli xulosalarni hududiy mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etishga qabul qilinganligi, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining statistik ma'lumotlari, shuningdek, boshqa rasman e'lon qilingan amaliy ma'lumotlar tahliliga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada yoritilgan miqdoriy usullar va ilmiy xulosalardan hududlarni innovatsion iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish tendensiyasini tahlil qilish hamda ularning o'zgarishlarini baholash, olingan natijalardan hududiy sanoatlarni uzoq muddatli rivojlantirish istiqbollarini belgilash va bu borada muhim qarorlar qabul qilishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyada olingan tahliliy ma'lumot va takliflardan Xorazm viloyati hokimligi amaliy faoliyatida foydalanilganligi, xususan, amaliyotga taqdim etilgan asosiy xulosa va prognoz natijalari asosida viloyat sanoati rivojlanishining kelgusi variantlari hamda turli iqtisodiy rivojlanish senariylarini ishlab chiqish imkoniyatlari mavjudligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini innovatsion mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

hududlar innovatsion ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini tahlil etishda entropiya hamda PCA (Principal Component Analysis) usullarini kombinatsiyalash asosida $w_j = \alpha w_j^{(entropy)} + \beta w_j^{(PCA)} + \gamma w_j^{(expert)}$ formulasidan samarali foydalanish bo'yicha taklif Xorazm viloyati hokimligi mahkamasi faoliyatiga joriy qilingan (Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 4-noyabrdagi 05-6-09/11219-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini empirik tahlil etishda entropiya usuli va PCA kombinatsiyasi subyektiv xatoliklarni kamaytirib, hududlar rivojlanish darajasi bo'yicha aniqroq differensial baholash imkonini bergan.

hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda normativ-huquqiy baza va strategik dastur, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va inson kapitali, ilmiy ishlanmalarni moliyalashtirish, texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish, innovatsion mahsulotlarni bozorga chiqarish va eksport qilish, hududiy

iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi ishlab chiqilgan algoritmi bo'yicha taklif Xorazm viloyati hokimligi mahkamasi faoliyatiga joriy qilingan (Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 4-noyabrdagi 05-6-09/11219-son ma'lumotnomasi). Natijada, taklif etilgan subindekslar tizimi Xorazm viloyatining innovatsion ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini kompleks baholash, hududiy nomutanosibliklarni aniqlash, resurslarni samarali taqsimlash hamda strategik rejalashtirish va boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslash imkonini bergan.

O'zbekiston hududlari bo'yicha Regression Tree va Random Forest tahlillari agrar ko'rsatkichlardan ko'ra transport xizmatlari hajmi ($\text{LnX}_{13}=0.457$) va moliya xizmatlari hajmi ($\text{LnX}_{14}=3.42$), hududlarda yalpi ichki mahsulotni o'sishi hamda aholi jon boshiga daromadlarni o'sishiga ijobiy ta'sir etuvchi ekzogen omillar bo'yicha takliflar Xorazm viloyati hokimligi mahkamasi faoliyatiga joriy qilingan (Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 4-noyabrdagi 05-6-09/11219-son ma'lumotnomasi). Natijada, hududlarda aholi daromadlarining o'sishi bevosita moliyaviy tizim rivoji va transport xizmatlari hajmiga, aholi sonining ortishi va ekologik cheklovlar esa ularni pasaytiruvchi omil bo'lganligi sababli hududiy siyosatda transport infratuzilmasini kengaytirish hamda aholi o'sish sur'atlarini bandlik siyosati bilan muvofiqlashtirish imkonini bergan.

O'zbekiston Respublikasi Xorazm viloyatining aholi daromadlari va aholi jon boshiga YaIM hajmlarining 2030 yilgacha ishlab chiqilgan prognoz senariylari bo'yicha taklif Xorazm viloyati hokimligi mahkamasi faoliyatiga joriy qilingan (Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 4-noyabrdagi 05-6-09/11219-son ma'lumotnomasi). Natijada, ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston-2030 strategiyasida aks etgan viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlash va istiqbollarni belgilashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza shaklida taqdim etilib, aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan 6 tasi respublika va 1 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalar qismlaridan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 153 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyektini hamda predmeti tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalarini

amaliyotga tatbiq etilishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini innovatsion mexanizmlarining ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida tadqiqotning ilmiy-nazariy, metodologik va amaliy jihatlari tadqiq etilgan, jumladan, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini innovatsion mexanizmlarining nazariy asoslari o'rganilgan, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari tizimlashtirilgan, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni rivojlantirishning xorijiy mamlakatlar tajribasi yoritilgan.

Muallif tomonidan tayorlangan hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini innovatsion mexanizmlarining ilmiy-nazariy asoslarini o'rganishning adabiyotlar xaritasi ko'rsatadiki, hududiy innovatsion tizimlar bo'yicha zamonaviy tadqiqotlar to'rtta asosiy tematik klaster atrofida shakllangan bo'lib, ularning har biri samarali hududiy innovatsion arxitektura mexanizmlarini tushunishga hissa qo'shadi.

Birinchi guruh institutsional dizayn va innovatsion siyosatga bag'ishlangan ishlardan iborat. Bu yerda Skandinaviya, Germaniya va Yaponiya misollarida innovatsion siyosat vositalari hamda ko'p darajali boshqaruv mexanizmlarini tahlil qilgan yevropalik va osiyolik tadqiqotchilar yetakchi o'rin tutadi.

Ikkinchi guruh tarmoqlar va ijtimoiy kapitalga qaratilgan yondashuvlarni birlashtiradi. Unda AQSh tajribasidagi knowledge spillovers, Yevropadagi klasterlashuv tahlili va Osiyodagi embeddedness konsepsiyalari integratsiyalashadi.

Uchinchi guruh inson kapitali va bilim transferiga yo'naltirilgan. Bu guruhda universitet-biznes hamkorligi, raqamli innovatsiyalar va bilimlarni tijoratlashtirish mexanizmlariga bag'ishlangan tadqiqotlar turli qit'alardan olingan materiallar asosida birlashtiriladi.

To'rtinchi guruh hududiy ixtisoslashuv va rivojlanish trayektoriyalarini qamrab oladi. Bu yerda smart specialization nazariyasi path dependence hamda chuqur transformatsiyalar konsepsiyalari bilan kesishadi.

Muhim jihati shundaki, ajratilgan klasterlar izolyatsiyada mavjud emas, balki ko'plab konseptual yo'nalishlar orqali o'zaro bog'langan. Masalan, institutsional yondashuvlar tarmoq tahlillari bilan vositachilar va qo'llab-quvvatlash agentliklarining roli orqali kesishadi. Tarmoqlar inson kapitali bilan ijtimoiy ishonch va bilim almashinuvi mexanizmlari orqali birlashadi. Ixtisoslashuv esa institutsional dizayn bilan siyosiy instrumentlar va place-based approaches orqali ulanadi.

Tadqiqot maydonining bunday tuzilishi shuni ko'rsatadiki, samarali hududiy innovatsion mexanizmlar shakllanishi uchun institutsional, tarmoq, inson kapitali va strategik omillarni birgalikda hisobga olish zarur.

Geografik taqsimot ham global xususiyatni yaqqol ochib beradi. Agar institutsional tadqiqotlar asosan Shimoliy Yevropa va Osiyo tajribalariga tayanadigan bo'lsa, tarmoq yondashuvlari AQSh va Germaniya keislariga keng murojaat qiladi. Inson kapitalini o'rganish esa rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning keng doirasini qamrab oladi. Bu esa turli milliy innovatsion tizim modellarini tushunish va ularning universal ishlash tamoyillarini aniqlash imkonini beradi.

Yuqoridagida ko'rsatilganidek, konseptual sxema mintaqaviy innovatsion tizimlarning oltita asosiy komponentini ajratib ko'rsatadi, har biri o'ziga xos o'zaro

ta'sir turlari va o'lganadigan indikatorlar bilan tavsiflanadi⁸. Bilim infratuzilmasi universitetlar, tadqiqot institutlari va R&D markazlari orqali tizimning kognitiv poydevorini shakllantiradi, patentlar, nashrlar va tadqiqotchi xodimlar shaklida o'lganadigan natijalarni yaratadi. Moliyaviy infratuzilma innovatsion loyihalarni kapitalizatsiya qiladi. Bunda venchur fondlar, rivojlanish banklari va IPO bozorlarining roli katta bo'lib, moliyaviy institutlar va innovatsion korxonalar o'rtasida gorizontalar tarmoq aloqalarini hosil qiladi⁹. Ishlab chiqarish infratuzilmasi esa ishlab chiqarish klasterlari, texnoparklar va biznes-inkubatorlar orqali fazoviy aglomeratsiyalarni shakllantiradi. Bu yerda korxonalar zichligi va ixtisoslashuv darajasi klasterlash indikatorlari sifatida xizmat qiladi.

Shimoliy Yevropa olimlari Bjørn Asheim va Lars Coenen¹⁰ mintaqaviy innovatsion tizimlarni bilim bazasi konsepsiyasi orqali nazariy jihatdan rivojlantirdilar va analitik hamda sintetik bilim bazalari orasida fundamental farqni belgiladilar (1-jadval).

1-jadval

Mintaqaviy innovatsion tizimlarning asosiy komponentlari¹¹

| Komponenti | Asosiy elementlar | O'zaro ta'sir turi | O'lganadigan indikatorlar |
|---------------------------------|---|------------------------------|--|
| Bilim infratuzilmasi | Universitetlar, tadqiqot institutlari, R&D markazlari | Vertikal (ierarxik) | Patentlar soni, nashrlar, tadqiqotchi xodimlar soni |
| Moliyaviy infratuzilma | Venchur kapital, rivojlanish banklari, IPO bozorlar | Gorizontalar (tarmoq) | Venchur investitsiyalar hajmi, kredit olish imkoniyati |
| Ishlab chiqarish infratuzilmasi | Ishlab chiqarish klasterlari, texnoparklar, inkubatorlar | Fazoviy (klaster) | Korxonalar zichligi, ixtisoslashuv darajasi |
| Madaniy superstuzilma | Tadbirkorlik madaniyati, xavfga tayyorlik | Ijtimoiy (madaniy) | Tadbirkorlik faoliyati indeksi |
| Siyosiy superstuzilma | Mintaqaviy innovatsion siyosat, klasterlarni qo'llab-quvvatlash | Institutsional (formal) | R&D ga davlat xarajatlari, dasturlar soni |
| Tashkiliy supertuzilma | Hamkorlik tarmoqlari, texnologiyalar transferi institutlari | Muvofiqlashtiruvchi (tarmoq) | Tarmoqlar zichligi, kollaboratsiya intensivligi |

Analitik bilim bazalari ilmiy-intensiv sektorlar uchun xarakterlidir; bunday sohalarda innovatsiyalar ilmiy tadqiqotlar va rivojlanish jarayonlari orqali yuzaga

⁸ Cooke, P. (2001). Regional innovation systems, clusters, and the knowledge economy. *Industrial and Corporate Change*, 10(4), 945-974.

⁹ Autant-Bernard, C., & LeSage, J. P. (2011). Quantifying knowledge spillovers using spatial econometric models. *Journal of Regional Science*, 51(3), 471-496.

¹⁰ Asheim, B. T., & Coenen, L. (2005). Knowledge bases and regional innovation systems: Comparing Nordic clusters. *Research Policy*, 34(8), 1173-1190.

¹¹ Cooke, P. (2001). Regional innovation systems, clusters, and the knowledge economy. *Industrial and Corporate Change*, 10(4), 945-974.

keladi va formalizatsiyalangan bilim hamda yuqori malakali tadqiqotchilarni talab qiladi. Sintetik bilim bazalari esa muhandislik yo‘nalishidagi yoki amaliy sektorlarni ustun qo‘yadi. Bu sohalarida innovatsiyalar mavjud bilimlarning amaliy qo‘llanilishi, mahsulotlar va jarayonlarning modifikatsiyasi orqali yaratiladi va asosan amaliy tajriba hamda noformal bilimga tayanadi¹². Asheim va Coenen¹³ tadqiqotlari natijalariga ko‘ra, turli bilim bazalari mintaqaviy innovatsion tizimlarning o‘ziga xos xususiyatlarini talab qiladi. Analitik bilim bazalariga ega bo‘lgan mintaqalarda tadqiqot universitetlari yuqori konsentratsiyada joylashgan, ilm-fan va sanoat o‘rtasidagi shakllangan aloqalar, global ilmiy hamkorlik tarmoqlari va yuqori malakali kadrlarning yuqori mobilligi kuzatiladi. Aksincha, sintetik bilim bazalariga ega mintaqalar mahalliy o‘qitish tizimlariga, noformal o‘zaro ta‘sir tarmoqlariga, kumulyativ innovatsiyalarga va muayyan territoriya kontekstiga bog‘langan “sticky knowledge”ga tayangan bo‘ladi.

Mualliflar tavsiya qilgan indikatorlar to‘plamini ko‘rsatadi, har bir indikator innovatsion siklning ma‘lum fazasiga va ma‘lumot manbasiga mos keladi. Normalizatsiyada aralash usullar Z-score, min-max scaling, logarifmik transformatsiya va indeksli shkala qo‘llanilib, ma‘lumotlar taqsimoti hisobga olinadi va indikatorlar kompozit ko‘rsatkichlarga to‘g‘ri agregatsiya qilinadi (2-jadval).

2-jadval

Hududiy innovatsion tizimlar samaradorligini baholash indikatorlari¹⁴

| Indicator guruhi | Asosiy indikator | Ma‘lumot manbasi | Normalizatsiya metodi |
|--------------------|--|-----------------------------|-----------------------|
| Input Indicators | R&D xarajatlari (% YaIM) | Eurostat | Z-score |
| Process Indicators | Hamkorlik intensivligi indeksi | Community Innovation Survey | Min-Max |
| Output Indicators | 1 mln aholi uchun patent arizalari | European Patent Office | Log Transformatsiya |
| Outcome Indicators | Yuqori texnologiyali ish o‘rinlari o‘sishi (%) | OECD Hududal Statistics | Indeksli shkala |

Britaniyalik ekspert Erik Arnold tadqiqot va innovatsion siyosatni baholashda tizimli yondashuvni rivojlantirishga hissa qo‘shgan bo‘lib, u “systems evaluations” konsepsiyasini “systems world” uchun zarur, deb biladi. Arnold ta‘kidlaydiki, an’anaviy baholash metodlari, faqat alohida dasturlar yoki loyihalarga qaratilgan, innovatsion tizimlardagi murakkab o‘zaro ta‘sir va nochiziqli effektlarni to‘liq aks ettira olmaydi. U ko‘p qavatli metodologiyani taklif qiladi: macro-level indicators (milliy va mintaqaviy R&D ko‘rsatkichlari), meso-level analysis (soha va klaster tadqiqotlari) va micro-level evaluation (korxonalar va loyihalar bo‘yicha case study). Ushbu tizim kontekstida ushbu yondashuv siyosiy aralashuvlarning tizimli effektlari

¹² Ponds, R., Van Oort, F., & Frenken, K. (2007). The geographical and institutional proximity of research collaboration. *Papers in Regional Science*, 86(3), 423-443.

¹³ Asheim, B. T., & Coenen, L. (2005). Knowledge bases and regional innovation systems: Comparing Nordic clusters. *Research Policy*, 34(8), 1173-1190.

¹⁴ Zabala-Iturriagagoitia, J. M., Voigt, P., Gutiérrez-Gracia, A., & Jiménez-Sáez, F. (2007). Regional innovation systems: how to assess performance. *Regional Studies*, 41(5), 661-672.

va asosiy faktorlarning xulq-atvor o'zgarishlarini bir vaqtning o'zida baholash imkonini beradi¹⁵.

Yevropaning yetakchi tadqiqotchilari ta'kidlaydiki, milliy innovatsion tizimni baholashning future directioniga multi-criteria decision analysis kirishi kerak. Bu iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarni bir vaqtning o'zida hisobga olish imkonini beradi. Markaziy Osiyo tadqiqotchilari big data va real-time indikatorlardan foydalanish mintaqaviy innovatsion faollik monitoringining accuracy va timeliness qismini sezilarli oshirishi mumkinligini aniqlashgan. Amerikalik olimlar esa machine learning techniques tizimini an'anaviy ekonometrik modellar bilan integratsiyalash innovatsion jarayonlarni predictive analytics orqali prognoz qilish imkoniyatlarini kengaytirishini ta'kidlaydilar.


Shunday qilib, Finlyandiya, Germaniya, Yaponiya va Buyuk Britaniya keyslari tahlili shuni ko'rsatadiki, milliy innovatsion tizim samaradorligini oshirishda lokal va global brokerlarning o'rni alohida ahamiyatga ega. Ular innovatsion ekotizimda ishtirokchilar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va resurs almashinuvini ta'minlaydi. Bu esa tizimning inqiroz davrida barqarorligini oshiradi va adaptiv mexanizmlarini kuchaytiradi.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar va zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish bugungi kun talablaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda davlatning normativ-huquqiy bazasi va strategik dasturlari asosiy tayanch bo'lib xizmat qiladi. Mazkur hujjatlar hududiy siyosatni muvofiqlashtirish, iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish hamda mahalliy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash imkonini yaratadi.

Shu bilan birga, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va inson kapitali rivojlanishning ilmiy-amaliy asosini tashkil etadi. Inson kapitaliga investitsiya kiritish - bilim, ko'nikma va innovatsion fikrlashni rivojlantirish orqali hududlarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy ishlanmalarning amaliy iqtisodiyotga joriy etilishi hududiy innovatsion ekotizimning muhim qismi hisoblanadi.

Innovatsion faoliyatni rag'batlantirishda moliyalashtirish manbalari - davlat grantlari, xususiyy investitsiyalar, venchur fondlar va xalqaro dasturlar katta ahamiyatga ega. Ilmiy loyihalarni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish, xususan, ilmiy ishlanmalarni sanoatga integratsiya qilish, texnologiyalarni tijoratlashtirish va patentlash tizimini rivojlantirish iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

¹⁵ Arnold, E. (2004). Evaluating research and innovation policy: a systems world needs systems evaluations. Research Evaluation, 13(1), 3-17.



1-rasm. Taklif etilgan algoritm va uning bosqichlari¹⁶

Bundan tashqari, texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarni ishlab chiqarish jarayonlariga joriy etish korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Yangi texnologiyalarni tatbiq etish ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi, mahsulot sifatini oshiradi va yangi ish o'rinlari yaratishga xizmat qiladi. Marketing innovatsiyalari esa mahalliy mahsulotlarning ichki va tashqi bozorlardagi talabini kengaytirishga yordam beradi.

Innovatsion mahsulotlarni bozorga chiqarish va eksport salohiyatini oshirish hududiy iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biridir. Shu yo'nalishda klasterli yondashuv, ya'ni ilmiy muassasalar, ishlab chiqarish korxonalari, ta'lim muassasalari va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan algoritm quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

normativ-huquqiy asosni yaratish va strategik maqsadlarni belgilash;

ilmiy-tadqiqot salohiyati va inson kapitalini rivojlantirish;

ilmiy ishlanmalarni amaliy sohalarga tatbiq etish va moliyalashtirish tizimini takomillashtirish;

innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish;

innovatsion mahsulotlarni tijoratlashtirish, bozorga chiqarish va eksport qilish;

¹⁶ Muallif ishlanmasi.


hududiy iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash.

Shularga asosan hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda normativ-huquqiy baza va strategik dastur, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va inson kapitali, ilmiy ishlanmalarni moliyalashtirish, texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish, innovatsion mahsulotlarni bozorga chiqarish va eksport qilish, hududiy iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi algoritmi taklif etildi (1-rasm).

Shu tarzda yaratilgan tizimli yondashuv hududlarning innovatsion salohiyatini oshirish, iqtisodiy o'sish sur'atlarini barqarorlashtirish va aholi farovonligini yuksaltirishga xizmat qiladi. Innovatsion rivojlanishga asoslangan hududiy siyosat nafaqat iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va ustuvor taraqqiyotni kafolatlaydi.

Dissertatsiyaning **“Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy innovatsion rivojlanishini hozirgi holati”** deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekiston Respublikasi hududlari rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan, Xorazm viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining integral indeksi asosida baholangan, O'zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillari tahlili tahlili amalga oshirilgan.

2010-2024-yillarda O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti (YaIM) joriy narxlarda qariyb 16,5 baravar o'sib, 88,1 trln. so'mdan 1 454,6 trln. so'mga yetgan. Bu juda yuqori nominal kengayish bo'lib, iqtisodiyot hajmining tarkiban va hududiy jihatdan sezilarli diversifikatsiya qilinayotganini ko'rsatadi (2-rasm).



2-rasm. O'zbekiston Respublikasi va Xorazm viloyatida yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmi (yillik) joriy narxlarda¹⁷

Hududlar kesimida farqlar juda katta. Ya'ni, Toshkent shahri mamlakat iqtisodiy markazi sifatida 2024-yilga kelib, 281,1 trln. so'mlik YaHM yaratmoqda, bu ayrim viloyatlar ko'rsatkichidan o'nlab martalarga yuqoridir.

Toshkent viloyati va Navoiy viloyati ham yuqori natija ko'rsatmoqda. Ya'ni, mos ravishda 146,4 trln. va 117,3 trln. so'mga teng. Navoiy viloyatida bu o'sish xomashyo resurslariga (konchilik, kimyo va metallurgiya) tayanadigan “resurs rentasi modeli”ga xos bo'lib, tabiiy resurslarga asoslangan iqtisodiy baza viloyatning YaHMni respublika

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayorlangan.

o'rtacha sur'atlaridan oshirgan. Aksincha, Sirdaryo va Jizzax kabi agrar viloyatlarda YaHM hajmi nisbatan past (mos ravishda 28,0 va 43,1 trln. so'm). Bu ularning iqtisodiy tuzilmasi qayta ishlash sanoati va yuqori qo'shilgan qiymatli xizmatlar sektoriga to'liq o'ta olmaganini bildiradi.

Umuman olganda, hududiy nomutanosiblik (Toshkent shahri bilan qolgan hududlar o'rtasidagi tafovut) "markaz-periferiya" nazariyasiga mos. Poytaxt va unga yaqin hududlar (Toshkent shahri va Toshkent viloyati) kapital, infratuzilma va iste'mol talabining zichlashuvi hisobiga yalpi qiymat yaratishda ustunlashmoqda, bu aglomeratsiya effektlarini kuchaytiradi va resurslarni markazga tortadi.

Aholi jon boshiga jon boshiga yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmi ko'rsatkichi iqtisodiy farovonlikning hududiy differensial modelini ochib beradi. Respublika bo'yicha ko'rsatkich 2010-yildagi 3,08 mln. so'mdan 2024-yilda 39,1 mln. so'mga ko'tarilgan. Ammo, hududlar o'rtasidagi tafovut bundan ham keskinroq. Navoiy viloyati 2024-yilda jon boshiga 108,1 mln. so'm bilan mutlaq lider bo'lib turibdi. Bu Navoiy viloyati iqtisodiyoti yuqori kapitallashgan, xomashyo va sanoat klasterlari kuchli, aholi soni esa nisbatan kam bo'lgani bilan izohlanadi.

Uy-joy qurilishi hajmi aholining turmush sifati, urbanizatsiya sur'atlari va ko'chmas mulk bozorining faolligi haqida signal beradi. O'zbekiston bo'yicha ko'rsatkichi 2010-yildagi 8,86 mln. kv.m. atrofidan 2024-yilda 15,47 mln. kv.m.ga ko'tarilgan. Dinamika deyarli uzluksiz o'sishga ega, faqat 2020-yilda pandemiya ta'siri sezilib, ayrim hududlarda sekinlashuv kuzatildi. Viloyatlar kesimida hamma joy bir xil emas. Masalan, Toshkent viloyati va Namangan viloyati yildan-yilga katta hajmda turar-joy maydonini foydalanishga topshirgan. Bu hududlarda urbanizatsiya bosimi kuchli, mehnat migratsiyasi ichki oqimlari yuqori va aholi soni tez ortmoqda. Toshkent shahri ham yuqori ko'rsatkichga ega, lekin 2020-2024-yillar oralig'ida ayrim yillarda qisqa pasayishlar ko'rinadi. Bu ko'proq bozorning tartiblanishi, yer resurslari cheklanishi va ko'chmas mulk narxlarining o'sishida yuz beradi. Sirdaryo viloyati esa deyarli butun davr davomida eng kam hajmga ega. Bu Sirdaryo nisbatan kichik va qisman transit hudud sifatida shakllangani va urbanistik markazlar soni kamligi bilan izohlanishi mumkin. Uy-joy qurilishi ko'pincha infratuzilma investitsiyalari bilan ketma-ket yuradi. Bu hududning iqtisodiy jozibadorligini oshiradi. Demak, uy-joy fondining kengayishi iqtisodiy o'sishni jalb qiladi va o'zidan keyin xizmatlar sektorini (kommunal xizmatlar va remont bozorini) kengaytiradi.

2010-2024-yillarda yilma-yil foydalanishga topshirilgan qo'shimcha maktab o'rinlari soni ta'lim infratuzilmasining qay darajada bosim ostida ekani va davlat ijtimoiy investitsiyalarining qay yo'nalishda ekanini ko'rsatadi. Ko'rsatkich respublika bo'yicha notekisdir. Ya'ni, 2010-yilda atigi 12,9 ming o'rin bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda bu raqam 293,3 ming o'ringa oshgan. Bu katta farq bo'lib, so'nggi yillarda demografik yuklama va sinflarning to'lib ketishi masalasi iqtisodiy siyosat darajasiga ko'tarilganini bildiradi. Hududlar kesimida ham mantiqiy namuna bor. Eng katta qo'shimcha quvvatlar asosan aholisi eng zich va yoshlar ulushi yuqori bo'lgan hududlarda paydo bo'lmoqda. Masalan, Andijon, Namangan, Farg'ona, Toshkent viloyati va Toshkent shahri yildan-yilga sezilarli maktab o'rinlari yaratmoqda. Bu Farg'ona vodiysi va Toshkent aglomeratsiyasida ta'lim infratuzilmasi jamiyatning ijtimoiy barqarorligi uchun strategik ustuvor yo'nalishga aylanganini ko'rsatadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi va ayrim chekka hududlarda (Navoiy v.) ham qo'shimcha quvvatlar yaratilmoqda. Lekin, ular asosan mahalliy ehtiyojni yopish ko'rinishida. Bu jarayon hududiy rivojlanish nazariyasidagi "inson kapitali markazlashuvi" tamoyiliga mosdir. Ya'ni, sifatli ta'lim infratuzilmasi qayerda tezroq kengaysa, o'sha hudud uzoq muddatda iqtisodiy jihatdan raqobatbardoshroq bo'ladi.

Sog'liqni saqlash sohasida kasalxona o'rinlari soni mamlakat bo'yicha 12,7 mingga yetib, 2023-yilga nisbatan 4,3 barobar o'sdi. Bu natija, bir tomondan, avvalgi yillarda qisqarib ketgan ko'rsatkichlarning tiklanishi, ikkinchi tomondan esa yangi loyihalarning ishga tushirilishi bilan bog'liq. Ayniqsa, Toshkent viloyatida eng yuqori darajada 9,3 mingga yangi o'rin yaratilgani hududning investitsiya jalb qilish qobiliyatini tasdiqlaydi. Surxondaryoda ham 19 barobar o'sish kuzatildi. Ammo Andijon, Jizzax va Xorazm kabi ayrim hududlarda nol ko'rsatkich qayd etilgani hududiy tafovutlarni saqlab qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik bandlikning asosiy manbasi bo'lib qolmoqda. Respublika bo'yicha bu ulush 2010-yildagi 74,3 foiz atrofida bo'lgan va 2024-yilda ham deyarli 74-75 foiz darajasida saqlanmoqda. Bu shuni anglatadiki, iqtisodiyot tuzilmasi o'zgarayotgan bo'lsa-da, mehnat bozori kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikka tayangan. Hududlar bo'yicha qaraganda Farg'ona vodiysi viloyatlari (Andijon, Namangan va Farg'ona v.) va Samarqand viloyatida bu ulush juda yuqoridir (80 % dan yuqori daraja). Bu hududlarda mikrobiznes va kichik biznesning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikdagi o'rni beqiyos ekanini ko'rsatadi.

Toshkent shahri bo'yicha ko'rsatkich ancha past 2024-yilda 48,4 % atrofidan tashkil etadi. Bu poytaxtda yirik korporativ sektor, davlat va yirik xizmatlar tarmog'i (banklar va transport-logistika majmualari) bandlikda sezilarli ulushga egaligini bildiradi. Navoiy viloyatida ham kichik biznes bandlikdagi ulushi nisbatan pastdir (52 % atrofida). Chunki, bu hududda iqtisodiy faoliyat ko'proq yirik, yuqori kapitallashgan resurs korxonalarida jamlangan. Bu ko'rsatkichlar hududiy mehnat bozori strukturasi va ijtimoiy xavfsizlik mexanizmlari o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi. Agar kichik biznes bandlikning asosiy manbasi bo'lsa, u holda har qanday iqtisodiy silkinish (soliq yukining oshishi va kreditga kirish qiyinlashuvi) to'g'ridan-to'g'ri ijtimoiy barqarorlikka zarba beradi.

Atrof-muhit ko'rsatkichi hududiy rivojlanish sifatining muhim elementi hisoblanadi. Respublika bo'yicha atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar hajmi 2010-yildagi 729 ming tonnadan 2024-yilda 866,7 ming tona atrofida qayd etilgan. Yillar davomida ko'rsatkich tebrangan. Ya'ni, iqtisodiy faollik oshgan davrlarda chiqindilar ko'paygan va ayrim modernizatsiya bosqichlarida esa qisqa muddatli pasayish kuzatilgan.

Eng katta yuk Toshkent viloyati va Toshkent shahri, shuningdek Qashqadaryo va Buxoro kabi sanoat-logistika markazlariga to'g'ri keladi. Toshkent viloyatida 2024-yilda 465 ming tonnaga yaqin ifloslanish qayd etilgan. Mazkur hudud transport, sanoat, energiya ishlab chiqarish va qurilish bo'yicha aglomeratsiya markazi vazifasini bajaradi. Navoiy, Buxoro, Qashqadaryo kabi viloyatlarda ham yuqori chiqindilar qayd etilishi ularda qazib olish, qayta ishlash va yoqilg'i-energetika majmualari faoliyatining yuqoriligidan dalolat beradi. Aksincha, Namangan, Surxondaryo, Sirdaryo kabi ba'zi hududlarda ayrim yillarda past ko'rsatkichlar bor. Lekin, ularda

ham tebranishlar katta. Bu nazorat tizimi va hisobot metodologiyasidagi o‘zgarishlarga ham ishora qilishi mumkin. Hududiy siyosat nuqtai nazaridan, sanoatlashuv va ekologik yuk deyarli bir hududda jamlanmoqda. Bu ekologik tengsizlik va yashash sifati tafovutlarini kuchaytiradi hamda “barqaror rivojlanish” masalasini faqat iqtisodiy emas, hududiy adolat masalasiga aylantiradi.

Muallifning fikricha, hududlar innovatsion ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini tahlil etishda entropiya hamda PCA (Principal Component Analysis) usullarini kombinatsiyalash asosida $w_j = \alpha w_j^{(entropy)} + \beta w_j^{(PCA)} + \gamma w_j^{(expert)}$ formulasi taklif etilgan. Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini empirik tahlil etishda Entropiya usuli va PCA kombinatsiyasi subyektiv xatoliklarni minimallashtirib, hududlar rivojlanish darajasi bo‘yicha aniqroq differensial baholash imkonini beradi.

3-jadval

Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarning (Y₁) regressiya modeli (OLS)¹⁸

| Source | SS | df | MS | Number of obs | = | 196 |
|----------|------------|-----|------------|---------------|---|--------|
| | | | | F(8, 187) | = | 13.93 |
| Model | .051222013 | 8 | .006402752 | Prob > F | = | 0.0000 |
| Residual | .085980752 | 187 | .00045979 | R-squared | = | 0.3733 |
| | | | | Adj R-squared | = | 0.3465 |
| Total | .137202764 | 195 | .000703604 | Root MSE | = | .02144 |

| lny1 | Coef. | Std. Err. | t | P> t | [95% Conf. Interval] |
|-------|-----------|-----------|--------|-------|----------------------|
| lnx1 | -.0753544 | .0243447 | -3.10 | 0.002 | -.1233799 - .0273289 |
| lnx9 | .0126469 | .0082959 | 1.52 | 0.129 | -.0037188 .0290125 |
| lnx17 | .0118172 | .0049158 | 2.40 | 0.017 | .0021197 .0215148 |
| lnx18 | -.0041679 | .001453 | -2.87 | 0.005 | -.0070342 -.0013017 |
| lnx20 | .072401 | .0229051 | 3.16 | 0.002 | .0272154 .1175867 |
| lnx21 | .0128624 | .002991 | 4.30 | 0.000 | .006962 .0187629 |
| lnx25 | .0078325 | .0044293 | 1.77 | 0.079 | -.0009054 .0165705 |
| lnx29 | -.0306195 | .0056392 | -5.43 | 0.000 | -.0417442 -.0194948 |
| _cons | 4.554536 | .0380861 | 119.59 | 0.000 | 4.479402 4.629669 |

